

**Buyuk maqsadlar sari...**

***Egamova Muslima Sharif qizi***

***SamDCHTI Sharq tillari fakulteti  
xitoy tili yònالishi 3-bosqich talabasi.***

***Ilmiy rahbar:Pardayeva Iroda***

***Usmonova Nilufar***

***Annotatsiya:*** Maqolada yigirma yillik bahorimda baxtni har lahza his ettirgan insonlar, soğinch azobi, doimo inson shukr va sabr qilishi, yaxshililar tomon intilishi kabi masalalar ochib berilgan.

***Kalitsòzlar:*** dotsent, professor, murabbiy, tubanlik, glaballashuv, muvofaqqiyat, m uruvvatpesha, respublika.

Bugun yigirma yillik hayotimga nazar tashlasam, shukr qilsa arziydigan hayotda yashabman. Allohga behisob shukrlar bolsinki, kimlardir qalb kòzi bilan koradigan yorug dunyonи kordim. "Hazrati Odamzod", "Inson" degan nomga erishdim. Hayot meni har qanday vaziyatda ham tushunadigan, har doim qöllab-quvvatlaydigan, orzu-istik, qiziqishlarimni inobatga oladigan ota-onam bilan siyladi. Hamisha hamma joyda kònglim xotirjam, chunki ortimda meni har lahza duo qilib turuvchi ota-onam bor. Men ularni qanchalik yaxshi korishimni, qanchalik menga kerak ekanligini söz bilan ta'riflab berolmayman. Ö.Hoshimov" Ona-onam. Unga boshqa ta'rif kerak emas "degan fikrlari yodimga tushib ketdi... Inson kimgadir yoki nimagadir chin dildan havas qilsa, albatta osha niyatiga erishadi. Mana shu insonlarga qilgan havaslarim sabab 2021-yilda "Talabalik" baxtiga musharraf boldim. Hozirda SamDCHTIning 3-bosqich talabasiman. Talaba bòlganimdan sòng hayotim tubdan òzgardi.

Turli viloyatdan kelgan kursdoshlarim, professor, dotsent ustozlarim bilan bolgan qiziqarli suhbatlar mening dunyoqarashimning kengayishiga sabab bòldi. Ota-onamdan uzoqda soğinch azobiga kònikdim. Ular butun hayotim

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

davomida meni yonimda bolmasliklarini tushundim.Yaxshi insonni ham yomon insonni ham uchratdim.Lekin,hech kim yomon bolib tugilmaydi.Uning ham mehrli yuragi muzyurakka aylanishiga ,bağritosh bolishiga ham kimir sabab bòladi.I son bundan faqat xulasa chiqarishi zarur.Òqigan kitoblarimizning hammasida ham faqat yaxshi insonlar uchramaydiku, axir?

Kitobni yozgan yozuvchi ham kimnidir hayotini yozadi,yoki òsha kitob yozishiga qaysidir jarayon turtki beradi .2023-yilda "Faol kitobxon" Respublika kòrik tanloving Samarcand viloyat bosqichida qatnashib,faxrli 2-òrin sohibasi boldim.Bunda menga yordam bergen SamDCHTI institutining òzbek tili va adabiyoti kafedrasи òqituvchisi, dotsent I.Pardayevanig mehnatlari katta bòldi.U ustozning meni lol qoldirgan tarafi shundaki,

kibr-u havo,manmanlik yòq.Ustoz shogird suhbatı gøyoki ona-bola,yoki ikki sirdosh dugona singari samimiy bòlgan. Özbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov " Agarki dunyo imoratlari ichida eng ulûgi maktab bòlsa,kasblar ichida eng a'losi òqituvchilik va murabbiylilikdir" degan ibratli fikrlarini isbotini mana shu ustozda topdim. Hozirda men ham kelajakda dotsent darajasiga erishsam,"ustoz" nomli ulûg maqom sohibasi bòlsam ana shunday samimiy ochiqkòngil bolishni orzu qilaman.Kishi qanchalik yaxshilik qilsa,maqsadlari tomon tez odimlaydi.Xasad insonni tubanlikka chorlaydi.

Kimdir sizga yomonlik qilsa ham hech qachon qasdashmang.Kitob oqigan inson bilan kitob oqimagan inson farqi ham shundan bilinadi.Ilmgä intilgan inson,ilm tomon ketayotgan inson hech kim fikriga qulq solmasligi,diqqat e'tiborini faqat maqsadi tomon yònaltirishi kerak.

Inson yaqinlaridan qanchalik olisda bolsa,hayotda ulgâyishi shunchalik tez bolishini his qildim.Ota-onamday mehribon,oqko'ngil, muruvvatpesha inson yòqligini angladim.Shu bugungacha nimaga erishgan bolsam hamma-hammasi ota-onam qilgan duolari orqali.

Bir soz bilan aytadigan bolsam,ota-onani vaqtida qadrlash kerak.Har bir daqiqadan unumli foydalanish,bir on bolsada maqsad sari harakat qilishdan töxtamaslik zarur.Özimizni ozimiz òrgartirmasak,hech kim bizni buyuk inson qilib

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

qòymaydi.Buyuk bolishimiz uchun òzimizdan munosib iz qoldirishimiz,jamiyat uchun kerakli shaxs bòlib voyaga yetishimiz shart.Bugungi glaballashuv jarayonida muvofaqqiyatga faqat òz ustida tinimsiz ishlagan,kechani kecha kunduzni kunduz demagan,shirin uyqusidan kechgan,barcha chalǵutuvchi narsalardan uzoqlashgan,sabr qilgan va Allohdan soragan inson erishadi.Zero,maqsad aniq bòlsa,manzil bir qadam.

### **Foydalanimanligi adabiyotlar:**

- 1.O'.Hoshimov: “ Daftar hoshiyasidagi bitiklar”
- 2.I.Karimov: “ Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch”